
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti 1-bosqich magistranti
IRODAABDUMALIKOVA13@GMAIL.COM

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy faoliyatda uchraydigan zamonaviy stress omillarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy harbiy xizmat sharoitida harbiy xizmatchilar faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy stressorlar, jumladan, jangovar xavf, axborot bosimi, gibrid tahdidlar, ijtimoiy izolyatsiya va emotsional zo‘riqish omillari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, stressning shaxs psixikasiga ta’siri, stressga bardoshlilikning psixologik mexanizmlari hamda moslashuv jarayonlari Hans Selye, Richard Lazarus hamda Christina Maslach nazariyalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida zamonaviy harbiy stressorlarning harbiy xizmatchilar ruhiy barqarorligi, emotsional holati va kasbiy faoliyat samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy stress, stressor, stressga bardoshlilik, harbiy psixologiya, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, professional kuyish, moslashuv, emotsional zo‘riqish, gibrid tahdidlar, coping strategiyalari.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические особенности современных стрессовых факторов в военной деятельности. Научно освещены основные стрессоры, воздействующие на военнослужащих в условиях современной военной службы, включая боевую опасность, информационное давление, гибридные угрозы, социальную изоляцию и эмоциональное напряжение. Также на основе теорий Hans Selye, Richard Lazarus и Christina Maslach проанализированы влияние стресса на психику личности, психологические механизмы стрессоустойчивости и процессы адаптации. В результате исследования обосновано, что современные военные стрессоры оказывают значительное влияние на психологическую устойчивость, эмоциональное состояние и эффективность профессиональной деятельности военнослужащих.

Ключевые слова: военный стресс, стрессор, стрессоустойчивость, военная психология, социально-психологические особенности,

профессиональное выгорание, адаптация, эмоциональное напряжение, гибридные угрозы, копинг-стратегии.

Abstract. This article analyzes the socio-psychological characteristics of modern stress factors encountered in military activity. The study scientifically examines the main stressors affecting military personnel under contemporary military service conditions, including combat danger, information pressure, hybrid threats, social isolation, and emotional tension. In addition, the impact of stress on personality psychology, the psychological mechanisms of stress resistance, and adaptation processes are analyzed based on the theories of Hans Selye, Richard Lazarus, and Christina Maslach. The results of the study demonstrate that modern military stressors significantly affect the psychological stability, emotional state, and professional performance of military personnel.

Keywords: military stress, stressor, stress resistance, military psychology, socio-psychological characteristics, professional burnout, adaptation, emotional tension, hybrid threats, coping strategies.

KIRISH

Bugungi globallashuv va geosiyosiy keskinlik sharoitida harbiy xizmatchilar faoliyatiga ta’sir etuvchi psixologik omillar tobora murakkablashib bormoqda. Zamonaviy harbiy faoliyat nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlikni ham talab qiladi. Ayniqsa, gibrid urushlar, axborot xurujlari, texnologik jang vositalarining kengayishi, kiberxavfsizlik tahdidlari hamda doimiy jangovar tayyorgarlik harbiy xizmatchilar ruhiyatiga sezilarli bosim ko‘rsatmoqda. Shu sababli harbiy faoliyatda uchraydigan stress omillarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Stress inson organizmining tashqi yoki ichki bosimlarga nisbatan psixofiziologik javob reaksiyasi sifatida talqin qilinadi [1]. Hans Selye stressni organizmning har qanday talabga nisbatan nospetsifik reaksiyasi sifatida izohlagan [2]. Olimning fikricha, uzoq davom etuvchi stress insonning psixik va jismoniy resurslarini susaytiradi hamda moslashuv imkoniyatlarini cheklaydi. Harbiy faoliyat esa aynan yuqori xavf, noaniqlik va mas’uliyat bilan tavsiflanuvchi sohalardan biri bo‘lib, stressning doimiy mavjudligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy harbiy stressorlar avvalgi davrlardagi an’anaviy jangovar omillardan sezilarli darajada farq qiladi. Hozirgi davrda harbiy xizmatchiga faqat qurolli to‘qnashuv emas, balki axborot bosimi, psixologik manipulyatsiya, ijtimoiy izolyatsiya, virtual tahdidlar va kognitiv zo‘riqish ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa harbiy xizmatchining emotsional holati, motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Richard Lazarus hamda Susan Folkman stressni inson tomonidan vaziyatni kognitiv baholash natijasi sifatida tushuntiradi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, inson stressorni qanday qabul qilishi va unga qanday moslashishi psixologik bardoshlilik darajasini belgilaydi. Harbiy faoliyatda esa vaziyatni tezkor baholash va emotsional nazorat qilish alohida ahamiyatga ega [3].

Shuningdek, zamonaviy harbiy faoliyatda professional kuyish sindromi ham muhim muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Christina Maslach tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga ko‘ra, uzoq davom etuvchi emotsional zo‘riqish shaxsda hissiy charchoq, motivatsiyaning pasayishi va kasbiy samaradorlikning susayishiga olib keladi. Harbiy xizmatchilar faoliyatidagi yuqori mas’uliyat va doimiy xavf hissi ushbu holatning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi harbiy faoliyatda uchraydigan zamonaviy stress omillarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning harbiy xizmatchilar psixikasiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda stressga bardoshlilikni rivojlantirishning muhim jihatlarini yoritishdan iborat.

Mazkur maqolada harbiy faoliyatda uchraydigan zamonaviy stress omillarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini stress psixologiyasi, harbiy psixologiya hamda shaxsning psixologik moslashuvi bilan bog‘liq ilmiy yondashuvlar tashkil etadi.

Maqolada Hans Selyening stress nazariyasi, Richard Lazarus hamda Susan Folkmanning stressni kognitiv baholash va coping strategiyalari haqidagi ilmiy qarashlari metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Shuningdek, Christina Maslachning professional kuyish konsepsiyasidan foydalanildi.

Zamonaviy harbiy psixologiyada stress faqat jang maydonidagi xavf bilan emas, balki doimiy axborot oqimi, yuqori texnologik nazorat, virtual tahdidlar hamda noaniqlik hissi bilan ham bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Ayniqsa, gibrid urushlar sharoitida harbiy xizmatchilar bir vaqtning o‘zida ham jismoniy, ham

psixologik bosim ostida faoliyat olib borishi kuzatilmoqda. Bu esa stressning murakkab va ko‘p bosqichli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Gibrid urush - bu an’anaviy jangovar harakatlar bilan bir qatorda axborot xurujlari, kiberhujumlar, psixologik manipulyatsiya, iqtisodiy bosim va ijtimoiy beqarorlashtirish usullarining birgalikda qo‘llanilishidir [5]. Bunday urush shaklida dushmanni faqat qurol bilan emas, balki ruhiy, axborotiy va ijtimoiy jihatdan zaiflashtirish maqsad qilinadi. Bu esa stressning murakkab va ko‘p bosqichli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, zamonaviy gibrid tahdidlar harbiy xizmatchilarda “doimiy nazorat ostida bo‘lish hissi”ni shakllantiradi. Dron kuzatuvlari, raqamli monitoring tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi kuzatuv texnologiyalari insonning psixologik xavfsizlik hissini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Doimiy kuzatilayotganlik hissi esa stress gormonlari faollashuvining uzoq davom etishiga olib keladi. Shu sababli zamonaviy harbiy psixologiyada gibrid urushlar sharoitida stressga bardoshlilikni rivojlantirish, axborot-psixologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda [6].

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy qarashlarda uzoq davom etuvchi jangovar tayyorgarlik, uyqu rejimining buzilishi, oiladan uzoq muddat ajralish hamda doimiy xavf hissi harbiy xizmatchilar psixikasida emotsional charchoq va kognitiv zo‘riqishni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinmoqda [7]. Zamonaviy harbiy operatsiyalarda dron texnologiyalari, masofaviy boshqaruv tizimlari va raqamli kuzatuv vositalarining keng qo‘llanilishi ham harbiy xizmatchilarning diqqat barqarorligi va qaror qabul qilish jarayoniga qo‘shimcha psixologik yuklama bermoqda.

Nazariy tahlil jarayonida stress va stressga bardoshlilik masalalariga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganildi. Jumladan, Hans Selye stressni organizmning har qanday tashqi yoki ichki talabga nisbatan nospetsifik javob reaksiyasi sifatida talqin qilgan. Olimning fikricha, uzoq davom etuvchi stress inson organizmidagi moslashuv resurslarining kamayishiga olib keladi. Ushbu yondashuv harbiy faoliyatdagi doimiy zo‘riqish holatlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilar uzoq vaqt davomida yuqori xavf, qat’iy intizom va doimiy mas’uliyat ostida faoliyat olib borgani sababli ularda surunkali stress holati yuzaga kelishi mumkin [8].

Richard Lazarus va Susan Folkman esa stressni insonning vaziyatni subyektiv baholashi bilan bog‘liq jarayon sifatida tushuntirgan. Ularning nazariyasiga ko‘ra, bir xil vaziyat turli insonlarda turlicha psixologik reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Masalan, jangovar tayyorgarlik yoki xavfli hududda xizmat qilish ayrim harbiy xizmatchilarda motivatsiya va hushyorlikni oshirsa, boshqalarida qo‘rquv, xavotir va emotsional beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa stressga bardoshlilik darajasi individual psixologik xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida an’anaviy va zamonaviy harbiy stressorlarning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilindi. An’anaviy harbiy faoliyatda stress omillari asosan jang maydonidagi bevosita jismoniy xavf, qurolli to‘qnashuv, portlashlar, yaralanish ehtimoli va og‘ir harbiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan, XX asr urushlarida askarlar uchun asosiy psixologik bosim manbai front chizig‘idagi jangovar harakatlar, uzoq davom etuvchi artilleriya hujumlari va o‘lim xavfi hisoblangan. Bu davrdagi stress ko‘proq fizik xavf va biologik omon qolish instinkti bilan bog‘liq bo‘lgan.

Zamonaviy harbiy faoliyatda esa stress omillarining xarakteri sezilarli darajada o‘zgargan. Hozirgi davrda harbiy xizmatchilar nafaqat jismoniy xavf, balki axborot va psixologik bosim ta’sirida ham faoliyat olib bormoqda. Xususan, gibrid urushlar sharoitida ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan manipulyativ ma’lumotlar harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatmoqda [9]. Masalan, yolg‘on axborotlar, provokatsion videolar yoki vahima uyg‘otuvchi xabarlar harbiy jamoalarda xavotir va ishonchsizlik hissini kuchaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy harbiy faoliyatda kiberxavfsizlik tahdidlari ham yangi turdagi stressor sifatida shakllanmoqda. Harbiy tizimlarga uyushtiriladigan kiberhujumlar, maxfiy ma’lumotlarning sizib chiqishi xavfi va raqamli kuzatuv texnologiyalarining rivojlanishi harbiy xizmatchilarda doimiy psixologik bosim hissini yuzaga keltiradi [10]. Ayniqsa, dron texnologiyalari va sun’iy intellekt asosidagi kuzatuv tizimlarining keng qo‘llanilishi “doimiy nazorat ostida bo‘lish hissi”ni kuchaytiradi. Bu esa inson psixikasida surunkali hushyorlik va emotsional zo‘riqishni shakllantiradi.

Shuningdek, zamonaviy stress omillarining yana bir muhim jihati - axborotning haddan tashqari tez almashinuvi hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilish va tezkor qaror chiqarishga

majbur bo‘lmoqda. Bu esa kognitiv yuklamaning ortishiga olib keladi. Natijada diqqatning susayishi, qaror qabul qilishdagi xatolar va psixologik charchoq holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Christina Maslach konsepsiyasiga ko‘ra, uzoq davom etuvchi emotsional va psixologik bosim professional kuyish sindromiga sabab bo‘ladi. Zamonaviy harbiy faoliyatda stressning doimiy va yashirin xarakterga ega bo‘lishi ushbu xavfni yanada kuchaytirmoqda. Masalan, jangovar hududdan uzoqda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ham doimiy axborot bosimi, masofaviy tahdidlar va psixologik noaniqlik tufayli kuchli stressni boshdan kechirishi mumkin.

Shunday qilib, qiyosiy tahlil natijalari zamonaviy harbiy stressorlar an’anaviy stress omillariga nisbatan murakkabroq, uzoq davom etuvchi va psixologik jihatdan chuqurroq ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Bu esa harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikni rivojlantirish, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish hamda axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash zaruratini oshirmoqda.

Kontent-tahlil usuli yordamida harbiy faoliyatdagi zamonaviy stress omillari hamda ularning shaxs psixikasiga ta’siri ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi. Tizimli yondashuv orqali stress omillarining emotsional holat, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv va kasbiy samaradorlik bilan o‘zaro bog‘liqligi izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasida zamonaviy harbiy faoliyatda uchraydigan stress omillari nafaqat jismoniy xavf bilan, balki murakkab ijtimoiy-psixologik va axborotiy bosimlar bilan ham bog‘liq ekanligi aniqlandi. Zamonaviy harbiy stressorlar harbiy xizmatchining emotsional holati, kognitiv faoliyati, motivatsiyasi hamda ijtimoiy moslashuviga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

Nazariy va qiyosiy tahlillar asosida zamonaviy harbiy stressorlar quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

Jangovar stressorlar - mazkur stressorlar bevosita hayot uchun xavf tug‘diruvchi omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularga qurolli to‘qnashuvlar, portlashlar, yaralanish xavfi, jangovar yo‘qotishlar va favqulodda vaziyatlar kiradi. Ushbu omillar harbiy xizmatchilarda kuchli qo‘rquv, xavotir va psixologik zo‘riqishni yuzaga keltiradi. Aniqlanishicha, uzoq davom etuvchi jangovar tayyorgarlik va doimiy xavf hissi inson organizmida surunkali stress holatini shakllantiradi. Natijada uyqu buzilishi, hissiy beqarorlik, agressivlik va posttravmatik stress buzilishi (PTSD) rivojlanish xavfi ortadi.

Axborot-psixologik stressorlar - zamonaviy gibrid urushlar sharoitida axborot bosimi muhim stress manbalaridan biriga aylangan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yolg‘on axborotlar, manipulyativ propaganda, ijtimoiy tarmoqlardagi psixologik bosim va doimiy salbiy xabarlar harbiy xizmatchilar ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, harbiy faoliyat davomida tarqatiladigan vahimali yoki dezinformatsion materiallar harbiy jamoalarda ishonchsizlik, xavotir va emotsional taranglikni kuchaytiradi. Natijada psixologik barqarorlikning pasayishi hamda stressga bardoshlilik darajasining susayishi kuzatiladi.

Texnologik stressorlar - tahlillar zamonaviy texnologiyalar ham yangi turdagi psixologik bosimlarni yuzaga keltirayotganini ko‘rsatdi. Dronlar, sun’iy intellekt tizimlari, raqamli kuzatuv vositalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv texnologiyalarining keng qo‘llanilishi harbiy xizmatchilarda “doimiy nazorat ostida bo‘lish hissi”ni shakllantiradi. Shuningdek, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish zarurati kognitiv yuklamani oshiradi. Bu esa diqqatning susayishi, tez charchash va qaror qabul qilishdagi xatolarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik stressorlar - harbiy faoliyatdagi muhim stress omillaridan biri ijtimoiy izolyatsiya va oiladan uzoqlashish bilan bog‘liq holatlardir. Tahlillar uzoq muddatli xizmat, qat’iy intizom va cheklangan ijtimoiy aloqa harbiy xizmatchilarda emotsional yolg‘izlik hissini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, jamoaviy mas’uliyatning yuqoriligi, rahbariyat bosimi va xizmatdagi yuqori talablar psixologik zo‘riqish darajasini oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada motivatsiya pasayishi, hissiy charchoq va kasbiy kuyish holatlari yuzaga kelishi mumkin [11].

Stressning psixologik oqibatlari

Nazariy tahlillar asosida zamonaviy harbiy stressorlarning quyidagi psixologik oqibatlari aniqlandi:

- surunkali xavotir;
- emotsional beqarorlik;
- agressivlik;
- depressiv holatlar;
- kognitiv charchoq;
- motivatsiyaning pasayishi;
- ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari;
- professional kuyish;

- posttravmatik stress buzilishi.

Christina Maslach konsepsiyasiga ko‘ra, uzoq davom etuvchi emotsional bosim professional samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Zamonaviy harbiy faoliyatda stressning uzluksiz va yashirin xarakterga ega bo‘lishi ushbu xavfni yanada kuchaytiradi.

Stressga bardoshlilik omillari

Tahlillar natijasida stressga bardoshlilikni oshiruvchi muhim psixologik omillar ham aniqlandi. Ular quyidagilardan iborat:

- psixologik tayyorgarlik;
- emotsional nazorat;
- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- motivatsion barqarorlik;
- tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalari;
- coping strategiyalaridan samarali foydalanish.

Richard Lazarus nazariyasiga ko‘ra, stressli vaziyatni to‘g‘ri baholash va mos coping strategiyalarini qo‘llash stressning salbiy ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

Shunday qilib, natijalar zamonaviy harbiy stressorlar ko‘p bosqichli va murakkab xarakterga ega ekanligini, ular harbiy xizmatchilar psixikasiga chuqur ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatishini hamda stressga bardoshlilikni rivojlantirish bugungi harbiy psixologiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi.

Maqolada harbiy psixologiya, stress nazariyasi va psixologik moslashuvga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Shuningdek, zamonaviy geosiyosiy tahdidlar va texnologik rivojlanish sharoitida harbiy xizmatchilar faoliyatida yuzaga kelayotgan yangi psixologik muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy harbiy faoliyatdagi stress omillari avvalgi davrlardagi an’anaviy jangovar stressorlarga nisbatan murakkabroq va ko‘p qirrali xarakterga ega. An’anaviy harbiy faoliyatda stress asosan bevosita jismoniy xavf, jangovar harakatlar va biologik omon qolish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy harbiy sharoitda stress omillari psixologik, axborotiy va texnologik bosimlar bilan ham chambarchas bog‘lanmoqda.

Muhokama natijalari Hans Selyening stress haqidagi nazariy qarashlarini tasdiqlaydi. Olim ta’kidlaganidek, uzoq davom etuvchi stress organizmning moslashuv resurslarini kamaytiradi hamda psixologik va fiziologik charchoqqa olib

keladi. Zamonaviy harbiy faoliyatda esa stressning doimiy va uzluksiz xarakterga ega bo‘lishi ushbu jarayonni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, doimiy jangovar tayyorgarlik, yuqori mas’uliyat va noaniqlik hissi harbiy xizmatchilar ruhiyatida surunkali zo‘riqishni shakllantiradi.

Shuningdek, natijalar Richard Lazarus hamda Susan Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stressni kognitiv baholash nazariyasi bilan ham mos keladi. Chunki zamonaviy harbiy stressorlarning psixologik ta’siri nafaqat tahdidning mavjudligi, balki inson tomonidan ushbu vaziyatning qanday qabul qilinishi bilan ham belgilanadi. Masalan, gibrid urushlar sharoitida axborotning tez o‘zgarishi, dezinformatsiya va psixologik manipulyatsiyalar harbiy xizmatchining vaziyatni obyektiv baholashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa xavotir darajasining oshishi va emotsional barqarorlikning pasayishiga olib keladi.

Natijalar zamonaviy gibrid urushlarning psixologik xavfi an’anaviy urushlarga qaraganda murakkabroq ekanligini ham ko‘rsatdi. Chunki gibrid urushlarda jang maydoni faqat fizik hudud bilan cheklanmaydi. Axborot makoni, ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiya tizimlari ham psixologik kurash vositasiga aylanadi. Natijada harbiy xizmatchilar doimiy axborot oqimi va psixologik bosim ta’sirida qoladi. Bu esa diqqatning susayishi, emotsional beqarorlik va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Christina Maslachning professional kuyish konsepsiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, zamonaviy harbiy faoliyatdagi uzluksiz stress emotsional charchoq va kasbiy motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, uzoq davom etuvchi psixologik zo‘riqish, oiladan uzoqlik va yuqori javobgarlik hissi professional kuyish sindromining rivojlanish xavfini oshiradi.

Muhokama natijalari asosida zamonaviy harbiy faoliyatda stressga bardoshlilikni rivojlantirish muhim amaliy ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shu sababli harbiy xizmatchilarni nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham tayyorlash zarur hisoblanadi. Psixologik treninglar, coping strategiyalarini rivojlantirish, emotsional nazorat ko‘nikmalarini shakllantirish hamda axborot-psixologik xavfsizlikni mustahkamlash stressning salbiy ta’sirini kamaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, muhokama natijalari zamonaviy harbiy stressorlarning murakkab, ko‘p bosqichli va uzoq davom etuvchi xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa harbiy psixologiyada stressga bardoshlilik, psixologik moslashuv

va axborot-psixologik xavfsizlik masalalariga yanada chuqurroq ilmiy yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Mazkur maqolada harbiy faoliyatda uchraydigan zamonaviy stress omillarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar natijasida zamonaviy harbiy stressorlar an'anaviy jangovar stress omillariga nisbatan murakkabroq, uzoq davom etuvchi va psixologik jihatdan chuqurroq ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, gibrid urushlar, axborot bosimi, kiberxavfsizlik tahdidlari, raqamli nazorat tizimlari va doimiy noaniqlik hissi harbiy xizmatchilar ruhiyatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Maqolada zamonaviy harbiy stressorlarning emotsional holat, kognitiv faoliyat, motivatsiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi yoritildi. Stressning uzoq davom etishi hissiy charchoq, agressivlik, xavotir, professional kuyish hamda posttravmatik stress buzilishi kabi salbiy psixologik holatlarning rivojlanishiga sabab bo'lishi asoslab berildi. Shu bilan birga, zamonaviy harbiy faoliyatda stressning faqat jismoniy xavf bilan emas, balki axborotiy va psixologik bosimlar bilan ham bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan izohlandi.

Tahlillar Hans Selye, Richard Lazarus, Susan Folkman hamda Christina Maslachlarning ilmiy qarashlari zamonaviy harbiy psixologiyada ham dolzarb metodologik asos bo'lib qolayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, stressni kognitiv baholash va coping strategiyalaridan foydalanish harbiy xizmatchilarning psixologik moslashuvini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Maqola natijalari zamonaviy harbiy faoliyatda stressga bardoshlilikni rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Shu sababli harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayonida psixologik treninglar, emotsional barqarorlikni rivojlantirish, axborot-psixologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda coping ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy harbiy psixologiyada gibrid urushlar sharoitidagi psixologik tahdidlar, axborot manipulyatsiyasi va texnologik stressorlarning inson psixikasiga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta'minlash hamda stressga bardoshlilikni rivojlantirishga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H. Selye. The Stress of Life. - New York: McGraw-Hill, 1956. - P. 52-56.
2. H. Selye. The Stress of Life. - New York: McGraw-Hill, 1956. - P. 54.
3. R. Lazarus, S. Folkman. Stress, Appraisal, and Coping. - New York: Springer, 1984. - P. 150-158.
4. C. Maslach, M. Leiter. The Truth About Burnout. - San Francisco: Jossey-Bass, 1997. - P. 17-25.
5. NATO. Psychological Resilience in Modern Hybrid Warfare - Brussels, 2022. - P. 33-37.
6. Kennedy C., Zillmer E. Military Psychology. - Cambridge University Press, 2006. - P. 201-214.
7. V.M. Karimova. Kasbiy stress va professional kuyish muammolari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2020. - B. 63-71.
8. G‘.B. Shoumarov. Psixologik stress va shaxs faoliyati. - Toshkent: Fan, 2018. - B. 88-96.
9. NATO. Psychological Resilience in Modern Hybrid Warfare. - Brussels, 2022. - P. 41-48.
10. American Psychological Association. Stress Effects on Military Personnel in Modern Combat Conditions. - Washington, 2021. - P. 12-19.
11. Ismoilov. Harbiy psixologiya asoslari. - Toshkent: Harbiy nashriyot, 2019. - B. 112-136.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/